



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



## MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY QARASHLARIDA DIN VA TARAQQIYOT TUSHUNCHALARINING UYG‘UNLIGI

**Safayeva Soliha**

*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi  
Islomshunoslik fakulteti, Dinshunoslik yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

**Ilmiy rahbar: Mahfuza Alimova**

*“Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o‘rganish UNESCO” kafedrasi dotsenti*

### **KIRISH:**

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jihatdan inqiroz holatiga tushib qolgan, mustamlaka tufayli rivojlanishdan ortda qolayotgan Turkiston o‘lkasi ziyolilari tomonidan Chor Rossiyasining mustamlakasidan qutulish, jamiyatni rivojlantirish borasida harakatlar avj oldi. “Turkiston Jadidchilik harakati” nomi bilan tarixda qolgan ushbu jarayonning yetuk namoyandalaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiydir. U o‘z faoliyati davomida din va taraqqiyotning bir-biriga zid emas, balki bir-birini qo‘llab-quvvatlovchi tushunchalar ekanini yaqqol ko‘rsatib berdi, deyish mumkin.

### **ASOSIY QISM:**

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yil 20 yanvar kuni Samarqand shahrida muftiylar oilasida dunyoga keldi. Mahmudxo‘janing otasi islom dinining yirik mutaxassisi bo‘lgan va dinga oid qator maqolalar yozgan, ilmiy ishlar olib borganligi bois, ushbu ilmiy muhit uning dunyoqarashiga ta‘sir ko‘rsatmay qolmadi. Behbudiy adabiyot, tarix fanlari bilan birga u siyosatni ham o‘rgandi. Makka, Misr hamda Stambulga bo‘lgan sayohatlari uning dunyoqarashini butunlay o‘zgartirib yuborgani manbalarda qayd etiladi. U gazeta va jurnallar bilan hamkorlikni o‘rnatib, o‘z maqolalarini chop eta boshladi, xalqning ahvolini yaxshilash, ularga ziyo tarqatish uchun asosan maktablar faoliyati bilan shug‘ullandi.

Behbudiy 1899 yilda hajga borib, u yerdan muftiy unvoniga ega bo‘lib qaytdi, ayni chog‘da yangi usuldagi maktablarning asoschisi va targ‘ibotchisi, yangi darsliklarning ilk muallifi ham bo‘ldi. Mahmudxo‘ja 200 dan ziyod o‘zbek va tojik tillaridagi maqolalari “Tarjimon” gazetasida doimiy chop etilgan bo‘lib, ular orasida “Ehityoji millat”, “Ikki til emas, to‘rt til lozim” kabi publististik asarlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Behbudiy islomni jamiyat taraqqiyotiga qarshi kuch sifatida emas, balki ilmga va tafakkurga chorlovchi vosita sifatida ko‘radi. U dinni noto‘g‘ri tushunishning zararini tanqid qiladi va dinni millatning ma‘naviy poydevori sifatida baholaydi. Uning fikricha, din bilim va ma‘rifatni inkor qilmaydi, aksincha, ilm olishni rag‘batlantiradi. Shuningdek, diniy qadriyatlar millatning axloqiy va madaniy me‘yorlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu uning aksariyat maqolalarida o‘z ifodasini topgan. Jumladan quyidagi fikrlarni olaylik: “Ammo qonun va Ovrupo odatlarini bilmaganimiz uchun... Zamoni sobiqda faqat shari‘at



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



bilmoq kifoya etardi. Endi qonun va zakunni bilmoq ham lozimdur.”<sup>10</sup> Bu so‘zlar Behbudiyning diniy fikr hamda dunyoviy qonunlarni birgalikda o‘rganish zarurligi, ya’ni din va taraqqiyot bir-biridan uzilmas ekani haqidagi qarashlarini yaqqol namoyon etadi.

Behbudiy fikricha, taraqqiyotning asosi – ilm, ma’rifat va zamonaviy kasb-hunarlarini egallashdir. Jamiyat faqat diniy qadriyatlar bilan cheklanib qolmasligi, balki dunyoviy fanlar va texnologiyalarni ham o‘rganishi kerak. Zamonaviy fan va texnika millatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojida muhim omil ekanligi, savodsiz jamiyat taraqqiy etolmasligi, shuning uchun yangi usul maktablari va bilim olish markazlari ochilishi zarur ekani uning “Ehtiyoji millat” nomli maqolasida alohida qayd etiladi: “Boshqa millatlarga qaralsa ko‘rilurki, muntazam maktablari bor va avval maktabda diniy ilm ustida dunyoviy ilm va fanlar ham o‘qilur. Chunki dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo‘lur.”<sup>11</sup>

Bu iqtibos Behbudiy jamiyat taraqqiyoti uchun ilm-fan va din uyg‘unligi zarurligini aniq ifodalaydi.

Behbudiy diniy va dunyoviy bilimlarni qarama-qarshi emas, balki uyg‘un holda egallashni targ‘ib qiladi. Unga ko‘ra: Din taraqqiyotga xalaqit bermaydi, aksincha, insonni bilim olishga undaydi. E’tiborga molik jihati shundaki, Behbudiy millatning haqiqiy taraqqiyoti – ma’rifatli, axloqiy va zamonaviy bilimli avlod tarbiyasida ekanini o‘z asarlarida bot-bot takrorlaydi. Ayniqsa, u yashagan davrdagi islomning to‘g‘ri talqini jamiyatni rivojlantirish va taraqqiyotga xizmat qilishi mumkinligi g‘oyasi bir qator dinni noto‘g‘ri fahmlash ortidan qoloqlik botqog‘iga botgan kimsalar uchun raddiya vazifasini bajargan.

Behbudiy xalqni doimo ta’lim olishga, ma’rifat izlashga chorlagan. Ayniqsa, diniy bilim va zamonaviy kasblarni egalash orqali jamaiyatda yuksak taraqqiyot modelini tuzish mumkinligini o‘z qarashlari orqali bayon qilgan. “Shari’at ilmi madrasalarga, qonun ilmi Rossiya dorilfununlariga o‘qilur... **Dorilfununga kirmoq uchun**, avvalo, o‘n sana gimnaziyaga o‘qumoq kerak.”<sup>12</sup> Yuqoridagi o‘rinda ham Behbudiy diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlarni olmasdan turib, zamonaviy ijtimoiy-huquqiy kasblarni egallashning imkonsizligini ta’kidlaydi.

---

<sup>10</sup> Behbudiy M. *Ehtiyoji millat* // ZiyozUz elektron kutubxonasi. – URL: <https://n.ziyouz.com> (murojaat qilingan sana: 01.03.2026).

<sup>11</sup> Behbudiy M. *Ehtiyoji millat* // ZiyozUz elektron kutubxonasi. – URL: <https://n.ziyouz.com> (murojaat qilingan sana: 01.03.2026).

<sup>12</sup> O‘sha joy.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



### XULOSA:

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Mahmudxo‘ja Behbudiy qarashlarida din va taraqqiyot tushunchalari bir-birini inkor qiluvchi emas, balki uyg‘un bo‘lishi zarur bo‘lgan tushunchalardir. U dinni millatning ma‘naviy poydevori sifatida, taraqqiyot esa ilm, fan va zamonaviy kasb-hunar orqali amalga oshiriladigan jarayon sifatida ko‘radi. Shu bilan birga, dinni to‘g‘ri tushunish va zamonaviy ilmni egallash millatning madaniy va ijtimoiy rivojlanishini ta‘minlaydi. Bugungi kunda ham uning g‘oyalari dolzarb bo‘lib, ilm, din va taraqqiyot uyg‘unligini saqlash millat ravnaqi uchun asosiy omil ekanligini ko‘rsatadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Behbudiy M. Ehtiyoji millat // Ziyozuz elektron kutubxonasi. – URL: <https://n.ziyouz.com> (murojaat qilingan sana: 01.03.2026).
2. <https://jadidlar.uz> (murojaat qilingan sana: 06.03.2026.)

